(10). Gilson, Étienne. *The Christian Philosophy of St. Thomas Aquinas*. New York, Random House, 1956, 200 p.
(11). Johannes Kepler. Gesammelte Werke, ed. M Caspar et al., Munich, 1937, 321 p.
(12). Locke, John. *An Essay Concerning Human Understanding*. Book IV, Ch. I, Oxford: [Edition], 1689, 89 p.
(13). Newton I., *The Mathematical Principles of Natural Philosophy*. Translated into English by Andrew Motte. New-York, Daniel Adee, First American Edition, 1848, 504 p.

Ruziyeva Dilnoza Muxtorovna (Shahrisabz davlat Pedagogika instituti tayanch doktoranti)

O‘ZBEK AYOLINING MA’NAVIY LIDERLIK FENOMENI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ma’naviy liderlik hamda uning o‘zbek ayoli hayotidagi aksi tahlil etiladi. Ma’naviy liderlik fenomeni tarixiy, madaniy va zamonaviy ijtimoiy jarayonlar kontekstida kompleks o‘rganiladi. Liderlikning ma’naviy-axloqiy mezonlari, shakl va ko‘rinishlari ijtimoiy-falsafiy metodlar asosida tadqiq etiladi. Shuningdek, maqolada o‘zbek ayolining zamonaviy jamiyatdagi ma’naviy liderlik qiyofasi hamda uning oila institutini mustahkamlashdagi ahamiyati ochib beriladi. Ma’naviy liderlik fenomenini shakllanishida milliy qadriyatlar, sharqona an’ana va urf-odatlarning ta’siri tahlil etiladi.*

Kalit so‘zlar: *liderlik, o‘zbek ayoli, ma’naviy liderlik, gender falsafasi, ms’naviy-axloqiy asos, teng huquqlilik, insonparvarlik, inson qadri.*

ФЕНОМЕН ДУХОВНОГО ЛИДЕРСТВА УЗБЕКСКОЙ ЖЕНЩИНЫ

Аннотация. *В данной статье анализируется духовное лидерство и его отражение в жизни узбекской женщины. Феномен духовного лидерства изучается всесторонне в контексте исторических, культурных и современных социальных процессов. Духовно-нравственные критерии, формы и проявления лидерства исследуются на основе социально-философских методов. В статье также раскрывается образ духовного лидерства узбекской женщины в современном обществе и его значение в укреплении института семьи. Анализируется влияние национальных ценностей, восточных традиций и обычаев на формирование феномена духовного лидерства.*

Ключевые слова: *лидерство, узбекская женщина, духовное лидерство, гендерная философия, ду-ховно-нравственная основа, равенство, гуманность, человеческое достоинство.*

THE PHENOMENON OF SPIRITUAL LEADERSHIP AMONG UZBEK WOMEN

Annotation. *This article analyzes spiritual leadership and its reflection in the lives of Uzbek women. The phenomenon of spiritual leadership is studied comprehensively within the context of historical, cultural, and contemporary social processes. The spiritual and moral criteria, forms, and manifestations of leadership are explored using socio-philosophical methods. The article also explores the image of spiritual leadership among Uzbek women in modern society and its significance in strengthening the institution of the family. The influence of national values, Eastern traditions, and customs on the formation of spiritual leadership is analyzed.*

Key words: *Leadership, Uzbek woman, spiritual leadership, gender philosophy, spiritual and moral foundation, equality, humanity, human dignity.*

Kirish (Introduction). Zamonaviy jamiyatda har bir xalq uchun muhim bo‘lgan ijtimoiy-falsafiy tushunchalardan biri liderlik hisoblanadi. Vaholanki, liderlik tushunchasi jamiyat a’zolarini birlashtira olgan, yagona maqsad sari yetaklashga xizmat qiluvchi zaruriy funksional tushuncha sanaladi. Bugungi kunda zamonaviy lider qiyofasi, uning falsafiy mohiyati, axloqiy-estetik sifatlarini ilmiy-nazariy tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Vaholanki, global taraqqiyot davrida insoniyatni birlashtirish, ezgulik maqsadlariga yo‘naltirish tobora murakkablashib bormoqda. Mamlakatimizda ham ma’naviy-axloqiy saviyasi yuksak rahbarlarni shakllantirish masalasiga davlat siyosati darajasida qaralmoqda. O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, “Xalqning dardi va tashvishlarini pisand qilmaydigan, el-yurtimiz osoyishtaligi va jamoat tartibini saqlashga, adolat va qonun ustuvorligini ta’minlashga qurbi yetmaydigan har qanday darajadagi rahbarlarga nisbatan jiddiy chora ko‘riladi. Lo‘nda qilib aytganda, bunday loqayd va befarq shaxslarga rahbarlik lavozimlarida mutlaqo o‘rin yo‘q” [1;53-b.]. Bizningcha, davlat rahbari ta’kidlagan adolatlilik, xalqning dardi bilan yashash tuyg‘usi aynan ma’naviy-axloqiy tamoyillar asosidagina shakllanishi mumkin. Bugungi kunda zamonaviy liderlikning ma’naviy-axloqiy mohiyatini anglab yetish muhim vazifalardan biri sifatida talqin etilmoqda. Zero, ma’naviy liderlik deyilganda, shaxsning axloqiy nufuzi, qadriyatlarga sodiqligi va ruhiy ta’sir kuchi orqali boshqalarni ijobiy yo‘nalishga undash qobiliyati tushuniladi. Shu boisdan ma’naviy liderlik hamda uning o‘zbek ayoli hayotidagi o‘rni masalasini falsafiy tahlil etish bugungi kunda zaruriy ahamiyat kasb etadi. Aslida, tarixiy nuqtayi nazardan qaraganda, o‘zbek ayollarida azaldan liderlik qobiliyati shakllangan. O‘zbek jamiyatida ayol tarixan oilaning ma’naviy markazi sifatida qaralib, uning ta’siri faqat xonadon doirasi bilan cheklanmagan. Jamiyat hayotida ham oqila ayollar fikri o‘z ta’siriga ega bo‘lgan. Buni biz tariximizdagi ma’naviy liderlik qiyofasini shakllantira olgan

jasoratli malika Tumaris, aql va donishmandlik timsoli Oybarchin, temuriylar saltanatida ulkan siyosiy nufuz hamda diplomatik mavqega ega bo'lgan Bibixonim (Saroymulk-xonim), shuningdek, Nodira, Uvaysiy, Dilshodi barno, Anbar Otin kabi ko'plab ma'rifatparvar o'zbek ayollari timsolida ko'rishimiz mumkin. Shuni alohida qayd etish lozimki, o'zbek ayolining liderlik qobiliyati ma'naviyat, xulq-atvor, nafosat, me'yor hamda ma'lum bir axloqiy chegara doirasida namoyon bo'lib kelgan. Bundan kelib chiqib, bugungi zamonaviy jamiyatda ham ana shunday ma'naviy lider o'zbek ayollarini shakllantirish, uning axloqiy-ma'naviy asoslarini tahlil etish dolzarb hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Liderlik fenomeni jahon miqyosida ko'p tahlil etilgan falsafiy muammolardan biri sanaladi. Ayniqsa, g'arb mamlakatlarida mazkur tushuncha turli fanlar doirasida, jumladan tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, psixologik, sotsiologik hamda falsafiy kontekstlarda tadqiq etilgan. Misol uchun, Saymon Vester [9;384-b.] qarashlarida g'arbdagi yetakchilik g'oyasi, uning o'ziga xos xususiyatlari ochib beriladi hamda mazkur tushunchaga tanqidiy yondashiladi. Piter Northouse [6; 528-b] tadqiqotlarida esa liderlik nazariyasi hamda amaliyoti tushuntirib beriladi. Shuningdek, mazkur ilmiy izlanishlarda liderlik xususiyati, uning konstruktiv va destruktiv tomonlari ham tahlil etiladi. Shuningdek, Sara Sabir [8;28-b.] ilmiy izlanishlarida ta'lim dargohlaridagi liderlarning ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirish usullari, R.Ramiez [7;488-b.] tadqiqotlarida rahbarning boshqaruvdagi imidji va estetik madaniyati, lider etikasi falsafiy tahlil etiladi. Y.N.Krivenisheva [3;162-b.] g'arb va sharq hayotida liderlik fenomeni mohiyatini qiyosiy tahlil etgan bo'lsa, P.Y.Ovsyankin [5;166-b.] ma'lum bir korxona taraqqiyotida lider faoliyatining ahami-yatini ochib beradi. Mazkur masalada mamlakatimiz olimlari, shuningdek, falsafa ilmi doirasida ham qator il-miy izlanishlar olib borilgan. Ayniqsa, mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida rahbar kadrlarning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, g'oyaviy-mafkuraviy salohiyati, ularda ratsional tafakkur va xulq-atvorni shakllantirish mexanizmlari borasida tadqiqotlar olib borgan A.A.Saidov, M.U. Atamuratov, K.S.Aliyeva, U.S.Elmurodov, K.A.Karimov, G.N.Nigmatova, L.U.Ravshanov, X.K.Buriyevlar ilmiy ishlarini alohida qayd etish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan bir qatorda, mazkur masala doirasida B.E.Yuldashev [12;133-b.]ning zamonaviy rahbar ij-timoiy mavqeyi, U.B.Shakarov [11;150-b.]ning rahbar axloqiy qiyofasi, N.T.Kariyeva [2;123-b.]ning rahbar hamda uning boshqaruvidagi insonlar bilan munosabati borasidagi tadqiqotlari diqqatga sazovordir.

Ammo yuqorida keltirilgan tadqiqot ishlarida asosan rahbarlik, liderlik fenomeni hamda uning axloqiy jihatlari umumiy ma'noda falsafiy tahlil etiladi. Bizning tadqiqot ishimizda esa aynan o'zbek ayollarining ma'naviy liderlik qiyofasi, uni shakllantirish mexanizmlari tadqiq etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqot ishida ilmiy bilishning analiz va sintez, tizimli tahlil, obyektivlik, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tarixiylik va mantiqiylik kabi usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ma'lumki, liderlik tushunchasi, asosan, jamiyat a'zolari orasida o'z o'rni, nufuzi hamda obro'siga ega bo'lgan, kishilarni yagona maqsad yo'lida birlashtirib, o'z orti-dan ergashtira olgan shaxslarga nisbatan qo'llaniladi. Ba'zi manbalarda "Liderlik – jamoa orasida turli vaziyat-lar ta'sirida yuzaga keladigan rahbarlik, lekin bu rahbarda rasmiy vakolat tizimi mavjud emas" [10;46-b.], deya talqin etiladi. Demak, liderlik faqatgina ma'lum bir mansabdorlik, yoxud rahbarlik faoliyati bilan bog'liq emas, aksincha, liderlar xalq orasida o'z so'zini ayta oladigan hamda kishilar ongi va tafakkuriga ta'sir etib, ularni ishontira oladigan kishilardir. Ular oddiy inson bo'lishi mumkin, ammo xalq unga ishonadi hamda ergashadi. Aynan sharq xalqlarida liderlik fenomeni tushuntirilganda bu fikr yaqqol namoyon bo'ladi. Vaholanki, o'zbek xalqi uchun ham asrlar davomida liderlar ma'lum bir rahbarlik, mansab vakolatidan qat'iy nazar, xalq orasida o'z o'rniga ega insonlar hisoblab kelingan. Ayniqsa, xalqimizga xos muhim ijtimoiy bo'g'inlardan biri bo'lgan mahalla sistemasida bu holat yaqqol namoyon bo'lib keladi. Ammo yana boshqa manbalarda liderlik tushunchasining falsafiy mohiyati yetakchilik, rahbarlik, ma'lum bir jamoaviy mas'uliyat faoliyati bilan bog'liq holatda tushuntirib beriladi.

O'zbek xalqi hayotida rahbarlarga, boshqaruvchilarga, ya'ni liderlarga munosabat azaldan muhim hisoblanadi. Xalqimizga xos eng muhim xususiyatlardan biri boshqaruvchiga itoatkorlik, ishonch, yuksak hurmat sifatlari lider va uning boshqaruvidagi insonlar munosabatida yaqqol namoyon bo'ladi. Ammo bugungi zamonaviy jamiyatda liderlik fenomeni ham tobora rivojlanib, yangicha shaklda namoyon bo'lmoqda. Bugun odamlarni ishontirish, o'z ortidan ergashtirish oson vazifa emas. Inson tafakkuri yuksalgani sari u ergashadigan liderlarga nisbatan talabi ham ortib bormoqda. Bugungi kunda jamiyat a'zolari kimga ergashishni, kimga ishonish hamda kimning so'ziga quloq tutishni, asosan, mantiqan tafakkur qilgan holatda hal etishadi. Ammo hizirgi zamonda insonlarni qandaydir bir yovuz maqsadlar yo'lida birlashtirshga uringan, ularni ishonchiga kirib, ko'r-ko'rona ergashtirayotgan liderlar ham borligini qayd etish lozim. Shu boisdan ham zamonaviy liderlarni shakllantirishda axloqiy-ma'naviy asoslarning ahamiyatini aniqlash, bugungi kunda ayniqsa dolzarb hisobla-nadi.

Tadqiqot ishimizning asosiy maqsadi doirasida mulohaza olib borganda bugun mamlakatimiz ijtimoiy hayotida o‘zbek ayolining ma’naviy liderlik fenomenini falsafiy, ilmiy-nazariy asosda tizimlashtirish hamda uning tarixiy va zamonaviy shakllarini aniqlash muhim ahamiyatga egadir. Bu borada ayollarimizning yetakchilik qobiliyati, uning tarixiy, ma’naviy-axloqiy, nazariy asoslarini o‘rganish, ayniqsa dolzarb sanaladi. Zero gender falsafasi tobora mustahkamlanib borayotgan hozirgi dunyoda zamonaviy lider ayol, uning ma’naviy qiyofasi hamda bu qiyofani shakllantirish mexanizmi, usul va vositalarini ishlab chiqish zaruratga aylanib bormoqda. Ma’lumki, ***“Gender*** – psixologiyada (erkak, ayol) tushunchasiga aniqlik kirituvchi ijtimoiy biologik tavsifnoma. Jins biologik kategoriya bo‘lganligi uchun ijtimoiy psixologlar aksariyat hollarda biologik asoslangan gender farqlarni (jinsli farqlar) sifatida qarashadi” [10;27-b.]. Ammo, bizningcha, bu tushunchaning fal-safiy mohiyatiga ham to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Chunki “Odamlar o‘rtasida biologik farqlardan tashqari, ularning ijtimoiy vazifalari, xulqi, ruhiyati va hissiyotida ham muayyan tafovut mavjud. Gender deganda turli jamiyatlarda yashovchi erkak va ayollar xulqini belgilovchi ijtimoiy va madaniy vazifalar me’yorlari majmuasi tushuniladi. Tadqiqotlarda turli jins vakillari xulq-atvoridagi farq (mas.shaxsning psixologik sifatlari, xulq shakllari, faoliyat turlari, erkak va ayollar shug‘ullanadigan kasblar) biologik asosdan ko‘ra ko‘proq ijtimoiy-madaniy me’yorlar bilan belgilanishi aniqlangan. Gender erkak va ayollarga xos ijtimoiy model sifatida jamiyatda shakllanadi va u orqali erkak va ayolning jamiyat va uning turli institutlaridagi mavqeyi belgilanadi” [4;119-b.]. Jamiyatdagi bu mavqeni belgilanishida o‘zbek ayolining ma’naviy-axloqiy xususiyatlari, xulq-atvor elementlari hamda oqilonalik, madaniyatlilik sifatlari alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, uning oiladagi, siyosiy sistemadagi, boshqaruvdagi, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi vazifalariga alohida urg‘u beriladi. O‘zbek ayolining liderlik qiyofasi aynan uning madaniyatida, axloqida, ma’naviyati, ham oiladagi, ham boshqaruvdagi teng va oqilona funksiyalarida hamda aql-idrokida namoyon bo‘ladi. Bizningcha, o‘zbek ayoli uchun liderlik qiyofasini shakllantirish murakkab jarayon sanaladi. Chunki o‘zbek ayoliga xos iffat, hayo, erkaklarga nisbatan ulkan hurmat tuyg‘ulari asrlar davomida avloddan avlodga o‘tib kelayotgan eng asosiy aksiologik xususiyatlar sifatida ularning faoliyatiga ham ta’sir etadi. Ammo aynan shu qadriyatlar o‘zbek ayolining ma’naviy liderlik qiyofasini shakllantiradi. Bizningcha, o‘zbek ayolida manaviy liderlik fenomenini shakllantirishda quyidagi ma’-naviy-axloqiy mezonlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ya’ni, o‘zbek ayolida ma’naviy liderlik fenomenini shakllantirish va rivojlantirishda adolat, insonparvarlik, saxiylik, me’yoriylik, bag‘rikenglik, mehr-oqibat, muhabbat kabi ulkan axloqiy sifatlar dolzarb sanaladi.

Bizning nuqtayi nazarimizga binoan, o‘zbek ayolining ma’naviy liderlik fenomeni ham asrlar davomida shakllangan xulq-atvor me’yorlari, an’ana va qadriyatlar, milliy urf-odatlar ta’sirida, ham bugungi kunda to-bora ommalashib borayotgan gender falsafasi doirasida rivojlantirilishi lozim. Bu ikki yo‘nalish uug‘unligi, aniqrog‘i zamonaviy gender falsafasidagi liderlik tamoyillarini an’anaviy liderlik xususiyatlari bilan integrat-siyasi o‘zbek ayolining ma’naviy liderlik fenomenini shakllantiradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Birinchdan, zamonaviy o‘zbek ayolining ma’-naviy liderlik fenomenini shakllantirish tarixiy tajriba hamda yangicha gender falsafasiga tayanishni taqozo eadi. Bu o‘zbek ayoli ma’naviy liderlik qiyofasini milliy, ma’naviy-axloqiy hamda estetik qadriyatlar asosida shakllanishini ta’minlaydi. Zamonaviy o‘zbek ayoli ma’naviy liderligi fenomeni taraqqiyotida ma’naviy-axloqiy tamoyillar va estetik ko‘nikmalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, o‘zbek ayoli ma’naviy liderlik fenomeni xalqimizga xos eng muhim tarbiyaviy sifatlar hi-soblanuvchi adolat, halollik, insonparvarlik, mehrlilik, shafqat, kechirimlilik kabi ma’naviy-axloqiy tamoyillar asosida shakllanadi, rahbar qiyofasini mukammallashtiradi.

Uchinchidan, o‘zbek milliy qadriyatlari, an’ana va urf odatlari, o‘ziga xos oqilona xulq-atvor normalari zamonaviy o‘zbek ayoli ma’naviy liderlik fenomenini shakllantirishda muhim ma’naviy-axloqiy, nazariy-falsafiy hamda fundamental asos vazifasini bajarib, uning konstruktiv taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Мирзиёев Ш.М. Демократик ислоҳотларни чуқурлаштириш, барқарор ривожланишни таъминлаш – халқимиз учун муносиб ҳаёт даражасини яратишнинг кафолатидир. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд, Тошкент, “Ўзбекистон”, 2017.

(2). Кариева Н. Ёш ходимлар ва раҳбарлар орасидаги ишончни шакллантириш механизмлари. Пси. фан. бўй. фалс. док. (PhD)... дисс., Тошкент, O‘RYOIAHYOMO‘IKTI, 2022.

(3). Кривенышева Е.Н. Этические основания лидерства в западной и отечественной культурах. Дис. ...канд. филос. наук, Саранск, 2010.

(4). Назаров Қ ва б. Маънавият: асосий тушунчалар луғати. Т., Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2021.

(5). Овсянкин П.Е. Социально-философские аспекты управления развитием организации. Дис. ...канд. филос. наук, Архангельск, 2000.

(6). Piter G. Leadership: Theory and Practice. 2018. ISBN 9781506362298.
(7). Ramirez R. Aesthetics and Leadership: An Essay. Psychoanalytic Inquiry, 41(7),2021.
(8). Sabir S. A study on Ethical leadership perceptions and its impact on teachers' commitment in Pakistan. International Journal of Educational Leadership and Management. 9 (1), 2020.
(9). Simon W. Leadership: A critical text. SAGE, 2013. M09 18 ISBN 9781446294208.
(10). Xalimova M.V. va b. Psixologik atamalar izohli lo'g'ati.Uslubiy qo'llanma. Andijon, Andijon davlat universiteti, 2017.
(11). Шакаров У. Раҳбар ахлоқи ва адолатли бошқарувни ташкил этиш муаммолари. Сиё. фан. бўй. фалс. док. (PhD)... дисс., Тошкент, ТошАҚИ, 2018.
(12). Юлдашев Б. Замонавий раҳбар ижтимоий қиёфасини юксалтиришнинг ижтимоий-фалсафий муаммолари. Фалс. фан. бўй. фалс. док. (PhD)... дисс., Самарқанд, ҚарДУ, 2022.

Mo'minov Fazliddin Qobil o'g'li (Samarqand shahar IIO FMB huzuridagi Qo'riqlash xizmati boshlig'i o'rinbosari, katta leytenant; ORCID: 0009-0003-1315-8990; fazliddinmominov213@gmail.com)

MILLIY VA UMUMINSONIY AXLOQIY QADRIYATLAR UYG'UNLIGINING SHAXS MA'NAVIY IMMUNITETINI SHAKLLANTIRISHDAGI IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada milliy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlar uyg'unligining shaxs ma'n-viy immunitetini shakllantirishdagi ijtimoiy-falsafiy asoslari IMRAD metodologiyasi asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi milliy ma'naviy an'analar va umuminsoniy etik tamoyillarning dialektik birligini nazariy jihatdan asoslashdir. Tarixiy-taqqoshlash, dialektik, germenevtik va konseptual tahlil metodlaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, milliy qadriyatlar (vatanparvarlik, sadoqat, an'ana) hamda umuminsoniy qadriyatlar (adolat, insonparvarlik, erkinlik) uyg'unligi shaxsning ma'naviy barqarorligi va axloqiy mustahkamligini ta'minlaydi. Xulosa sifatida mazkur uyg'unlik ma'naviy immunitetning aksiologik poydevori ekani asoslandi.*

Kalit so'zlar: *milliy qadriyat, umuminsoniy qadriyat, axloq, ma'naviy immunitet, aksiologiya, integratsiya.*

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ ГАРМОНИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ И ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ ДУХОВНОГО ИММУНИТЕТА ЛИЧНОСТИ

Аннотация. *В данной статье на основе методологии IMRAD анализируются социально-философские основы гармонии национальных и общечеловеческих моральных ценностей в формировании духовного иммунитета личности. Цель исследования – теоретически обосновать диалектическое единство национальных духовных традиций и общечеловеческих этических принципов. Использовались методы историко-сравнительного, диалектического, герменевтического и концептуального анализа. Результаты показали, что сочетание национальных ценностей (патриотизм, верность, традиции) и общечеловеческих ценностей (справедливость, гуманность, свобода) обеспечивает нравственную устойчивость и нравственную силу человека. В заключении утверждалось, что эта гармония является аксиологической основой духовной неприкосновенности.*

Ключевые слова: *национальная ценность, общечеловеческая ценность, мораль, моральный иммунитет, аксиология, интеграция.*

SOCIAL-PHILOSOPHICAL BASIS OF THE HARMONY OF NATIONAL AND UNIVERSAL MORAL VALUES IN THE FORMATION OF INDIVIDUAL SPIRITUAL IMMUNITY

Annotation. *This article analyzes the role of the harmony of national and universal moral values in human spiritual development based on the IMRAD methodology. The purpose of the study is to substantiate the dialectical unity of national spiritual traditions and universal ethical principles from a socio-philosophical perspective. Historical-comparative, dialectical, hermeneutic and conceptual analysis methods were used. The results showed that the harmony of national values (patriotism, loyalty, courage) and universal values (justice, peace, humanity) forms the spiritual immunity of the individual. In conclusion, it was substantiated that this harmony is a philosophical law that ensures a balance between personal duty and freedom, discipline and conscience.*

Keywords: *national value, universal value, morality, spiritual maturity, integration, spiritual immunity.*

Kirish. Globallashuv jarayonlari va mafkuraviy tahdidlar kuchaygan sharoitda shaxs ma'naviy immunetetini shakllantirish dolzarb masalaga aylandi. Ma'naviy immunitet bu shaxsning axloqiy barqarorligi, mafkuraviy mustaqilligi va ijtimoiy mas'uliyatini ta'minlovchi ichki qadriyatlar tizimidir.